

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№ SI-1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Фофуров Низомжон Октябрович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Сабиров Алишер Сабирович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам (США)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Муйдинова Моҳира Муқимжоновна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ходжаев Собир Джумаевич
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Акрамов Хусан Фуркатович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харасович
кандидат политических наук, и.о. доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сеитов Азамат РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ ПРОШЛОГО К ПЕРСПЕКТИВНОМУ БУДУЩЕМУ.....	5
2. Sabirova Umida SOTSIOLOGIK MONITORING YARATISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	12
3. Алексеева Виктория КОНЦЕПЦИИ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНАЛИЗЕ ДИНАМИКИ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....	21
4. Kayumov Kaxramon KICHIK SHAHARLARNI ILMIY O'RGANISHNING SOTSIOLOGIK JIHATLARI.....	30
5. Alikariyeva A'loxon TA'LIM SIFATI BOShQARUVIGA NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	36
6. Mannanova Nilufar DAVLAT XIZMATCHILARINI MERITOKRATIK YONDOSHUV ASOSIDA TANLASH – JAMIYATDA ADOLAT TAMOIYILI QAROR TOPISHINING MUHIM MASALASI SIFATIDA.....	44
7. Mo'minov Zokirjon IJTIMOIY MOBILLIK OMILINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI.....	51
8. Jiyanmuratova Gulnoz YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR.....	58
9. Сеитов Мансур МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В ФОРМИРОВАНИИ ЖИЗНЕННЫХ ПОЗИЦИЙ МОЛОДЕЖИ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ.....	66
10. Узакова Зарина СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ: ОТ СОЦИАЛЬНОЙ К БИОПСИХОСОЦИАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ИНВАЛИДНОСТИ.....	74
11. Ziyayeva Xolida AGRESSIV XULQ-ATVORNI O'RGANISHGA QARATILGAN NAZARIYALAR TAHLILI.....	80
12. Imomova Nozimaxon MEHNAT MIGRATSIIYASINI VUJUDGA KELISHI VA TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOIIY OMILLARI.....	88
13. Shokirov Shaxrizod HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH.....	93


14. Ixtiyarov Farxod INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOYIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOT OMILI.....	102
15. Akramov Xasan YANGI O‘ZBEKISTONNING SPORT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA NORMATIV-HUQUQIY BAZASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	108
16. Kalanova Sabohat JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI IJTIMOYIY HODISA SIFATIDA.....	117
17. Axrorov Zohidjon O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HODIM KASBINING JORIY ETILISHI, IJTIMOYIY SIYOSATNING AMALIY NATIJASI SIFATIDA.....	126
18. Xujanov Zafar KAMBAG‘ALLIK SABABLARI VA UNI QISQARTISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI.....	132
19. Turanazarov Umid KASBIY KOMPETENTLIK MOHIYATI VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI.....	138
20. Kaxarova Nilufar SHAXAR MEGOPOLISIDAGI AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.....	145
21. Хакимова Анора ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЫМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	154
22. A‘zamxonov Saidabzalxon TALABALAR MUSTAQIL TA‘LIM OLIHINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	163
23. Ro‘zimatov Elbek VOLONTYORLIK HARAKATINING NAZARIY TAHLILI.....	170
24. Masharipov Baxtiyar SHAHAR INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....	177
25. Muzaffarov San‘atbek VOLONTYORLIK HARAKATI – EZGULIK VAKSINASI.....	185
26. Yo‘ldashev Shoxrux YOSHLAR BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI SHAROITIDA MADANIY-HUQUQIY MUHITNING SUBYEKTI VA OBYEKTI SIFATIDA.....	190

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Axrorov Zohidjon,
Namangan davlat universiteti,
“Pedagogika nazariyasi va tarixi”
kafedrası o‘qituvchisi
e-mail: zohidjonaxrorov@gmail.com

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOİY HODIM KASBINING JORIY ETILISHI, IJTIMOİY SIYOSATNING AMALIY NATIJASI SIFATIDA

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10800150>

ANNOTATSIYA

Usbu maqolada davlat, jamiyat, fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy xizmatlarni shakllantirish, O‘zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat qurish yo‘lini tanlagan, shuningdek, amalga oshirilayotgan qayta qurishdan asosiy maqsad uning harakatlantiruvchi kuchi inson, shaxsning har tomonlama rivojlanishi, farovonligi hisoblanadi. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatning eng muhim xarakterli jihati shundan iboratki, bunda kishilar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar muvozanatining ta‘minlangan bo‘lishligi olib borilayotgan islohatlar, katta-yu kichik tadbirlar, belgilangan vazifalarning amalga oshirilishida fuqarolarning ishtimoiy fikrlari, qarashlari, manfaatlari eng birinchi o‘ringa ko‘tarilishi, bu esa yuqorida sanab o‘tilgan narsalar yuzasidan muntazam ravishda ijtimoiy tadqiqotlar olib borilishini, oliy ta‘lim muassasalarida tayyorlayotgan kadrlarimiz, ayniqsa ijtimoiy faoliyat va uni tashkillash bilan shug‘ullanadigan mutaxassisliklarning amaliy ijtimoiy bilim, malaka va ko‘ikmalarga ega bo‘lishi aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy xizmat, maishiy ehtiyojlarini qondirish, turmush sharoiti, farovonligini ta‘minlash, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san‘at, jismoniy tarbiya va sport, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish.

Ахроров Захиджон,
Наманганский государственный университет,
Преподаватель кафедры
«Теория и история педагогики»
e-mail: zohidjonaxrorov@gmail.com

ВНЕДРЕНИЕ ПРОФЕССИИ СОЦИАЛЬНОГО РАБОТНИКА В УЗБЕКИСТАНЕ КАК ПРАКТИЧЕСКИЙ РЕЗУЛЬТАТ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются социальные отношения между государством, обществом, гражданами, формирование социальных услуг, Республика Узбекистан выбрала путь построения демократического правового государства и гражданского общества, а также

основные цели проводимой перестройки ее движущей силой является человек, всестороннее развитие личности, ее благополучие. Важнейшей характеристикой демократического правового государства и гражданского общества является то, что в нем обеспечивается баланс взаимоотношений между людьми и государством, в ходе проводимых реформ, больших и малых мероприятий, при реализации поставленных задач на первое место выдвигаются общественные мнения, взгляды, интересы граждан, что позволяет систематически проводить социальные исследования по вышеперечисленным вопросам. кадры, которые мы готовим в высших учебных заведениях, особо отражается наличие у специалистов, занимающихся общественной деятельностью и ее организацией, практических социальных знаний, навыков и умений.

Ключевые слова: социальное обслуживание, удовлетворение бытовых потребностей, условия жизни, обеспечение благосостояния, образование, здравоохранение, культура и искусство, физическая культура и спорт, бытовое обслуживание населения.

Akhrorov Zohidzhan,
Namangan State University
teacher of the Department of
«Theory and history of pedagogy»
e-mail: zohidjonaxrorov@gmail.com

INTRODUCTION OF THE PROFESSION OF A SOCIAL WORKER IN UZBEKISTAN, AS A PRACTICAL RESULT OF SOCIAL POLICY

ABSTRACT

In this article, the main goal of the state, society, social relations between citizens, the formation of social services, the Democratic legal state of the Republic of Uzbekistan and the construction of a civil society, as well as the implementation of reconstruction, is the comprehensive development, well-being of a person, his driving force. The most important characteristic aspect of the democratic legal state and civil society is that the interaction between people and the state is ensured by reforms, large and small measures, social opinions, views, interests of citizens in the implementation of the established tasks are brought to the forefront, which means that Social Research is regularly carried out on the above-listed things, our staff, it is especially reflected that specialties that are engaged in social activity and its organization have practical social knowledge, qualifications and skills.

Keywords: social service, meeting household needs, living conditions, ensuring well-being, education, health, culture and art, physical education and sports, providing household services to the population.

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyoti izchil, barqaror va jadal o‘sayotgan jahondagi juda kam sonli mamlakatlar safidan mustahkam o‘rin olayotganligini faxr bilan e‘tirof etish mumkin. Ijtimoiy, madaniy sohalarda mamlakatimiz erishayotgan ulkan yutuqlar nufuzli halqaro tashkilot va ekspertlar tomonidan yuksak baholanmoqda. Axborotlar almashinuvi birinchi o‘ringa chiqayotgan yangi bosqichda ijtimoiy xizmatlarning ahamiyati yanada ortmoqda va mazmunan boyib, mantiqan inson faoliyatining barcha turlari bilan chambarchas bog‘lanmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida qabul qilingan va davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Xususan, ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Oylik va maoshlar, pensiya, stipendiya, ijtimoiy nafaqalarning bosqichma-bosqich oshirib borilishi;
2. Aholining ish bilan bandligini oshirishning samarali usullarini yaratish;
3. Aholini arzon va zamonaviy uy-joylar bilan ta‘minlash;

4. Aholining yashash sharoitlarini yaxshilash;
5. Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish;
6. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish;
7. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish;
8. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

Endigi vazifa ijtimoiy xizmatlarning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish va izchil rivojlantirish hamda istiqbolli yo'nalishlarini belgilab olishdan iborat. Ushbu vazifalarning bajarilishi kelgusida aholining ijtimoiy xizmatlardan samarali foydalanishga va yangi zamonaviy xizmatlarning vujudga kelishiga olib keladi.

METADOLOGIYA

O'zbekistonda ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning takomillashuvida quyidagi omillarga alohida e'tibor qaratmoqda [1].

- bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich, sohaning ijtimoiy ahamiyatini hisobga olgan holda shakllantirish;
- boshqaruvning ijtimoiy soha iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishini yanada yaxshilashga qaratilishi hamda ushbu maqsaddan soha rivojiga shart-sharoit yaratish;
- ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning professionallashuvi, uning ijtimoiy ahamiyatini ortishi va uni baholashning zarurligi;
- ijtimoiy sohani davlat byudjetidan moliyalashtirish tizimini takomillashtirish va tizimlashtirish;
- aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda manzilli va tabaqalashgan yondashuvni yanada kuchaytirish, kam ta'minlangan oilalarga zarur moddiy yordam ko'rsatishni ta'minlash.

Shimoliy Amerika, xususan, AQSH modelida davlatning xo'jalik faoliyatidagi roli eng past darajaga tushirilgan. Davlat asosan uchta vazifa, barqarorlik, qonun oldida barcha fuqarolarining tengligini ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish yo'li bilan biznes va tadbirkorlik faoliyatiga ko'maklashish hamda o'zini o'zi boqishga qurbi yetmaydiganlarga g'amxo'rlik ko'rsatish bilan shug'ullanadi [2]. O'zbekistonda mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuv darajasini kamaytirishga alohida e'tibor berilayotgani, sodda qilib aytganda, o'ta boylar ham, o'ta kambag'allar ham bo'lmasin, degan tamoyilga amal qilib kelinayotgani ma'lum albatta. Ma'lumki, ijtimoiy xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishi aholi turmush darajasi yuksalishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [3]. Ijtimoiy - madaniy tadbirlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot, uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ijtimoiy sohaning barqaror rivojlanishiga erishilmoqda. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi [4].

O'zbekistonda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish, ijtimoiy yo'naltirilgan zamonaviy tarqiyot shatoitida bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishda ijtimoiy siyosatning ta'sirchan va samarali vositalaridan foydalanib kelmoqda [5].

ASOSIY QISM

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi yordamga muhtojlarga, xususan, ko'p bolali, kam ta'minlangan oilalar, ishsizlar, nogironlar, talaba va pensionerlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Ushbu tizimni yanada isloh qilish, aholining ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish, davlat ijtimoiy siyosatining asosini tashkil qildi.

Fuqarolarga natijali ijtimoiy ko'makni ko'rsatish imkonini beruvchi aholini ijtimoiy himoyalash tizimining vujudga kelishi ushbu yillardagi (2019-2023-yy) ijtimoiy siyosatning tabiiy yutuqlaridan bo'lib hisoblanadi [6]. Islohotlarning chuqurlashib borishi barobarida aholiga manzilli yordam ko'rsatilishiga katta e'tibor qaratildi. Barcha nafaqa va yordam turlari oilalarga berila boshlandi, bunda asosiy e'tibor kam ta'minlangan oilalar, qariyalar va bolalarga qaratildi. Aholining turli qatlamlariga differensial yondoshish zamonaviy ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xos tomonlaridan biridir. Mamlakat ijtimoiy siyosatining yutuqlaridan yana bir ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimining vujudga kelishi, aholi bilan ishlashda fuqarolarga natijali ijtimoiy ko'mak ko'rsatish

imkonini beruvchi jamoaviy usul va texnologiyalardan keng foydalanish hisoblanadi [7]. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari hokimiyatlarda hududiy ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish, ijtimoiy ish (ijtimoiy hodim), ijtimoiy pedagogika va amaliy psixologiya sohasida mutaxassislarni tayyorlash tizimining tashkil topishi va rivojlantirilishi barobarida aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish imkoniyati ortib bormoqda [8].

Yangi O'zbekiston sharoitida aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi alohida shaxslar, oila yoki guruhlarning moslashuvi, ijtimoiy rehabilitatsiyasiga yo'naltirilgan ijtimoiy-gumanistik faoliyatning ma'lum bir uslubi tizimi sifatida namoyon bo'ladi [9]. O'tish davrining murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarida O'zbekiston yordamga muhtoj fuqarolarining zarur yordam va ko'mak olishi uchun xizmat qiladigan yangi ijtimoiy muassalar tizimini yaratish imkoniyatiga ega bo'ldi. Qariyalar, bolalar, nogironlar haqida qayg'urish Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Vazirligi, jamoatchilik tarzida o'zini boshqarish organlari (mahalla), IIV tomonidan amalga oshiriladi. Bunday muassasalar tarkibiga turli toifadagi fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari, aholiga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish markazlari, voyaga yetmaganlar uchun ijtimoiy-reabilitatsiya markazlari, oila, ayollar va bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha hududiy markazlar shular jumlasidandir [10]. Uyda ijtimoiy ko'mak ko'rsatilishiga muhtoj fuqarolarni butunlay qamrab olish va ularga ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lish maqsadida o'zini-o'zi boshqarish organlariga yolg'iz nafaqaxo'rlar, qariyalar va nogironlarga uyda xizmat ko'rsatish bo'yicha ish bilan shug'ullanish uchun ijtimoiy hodim o'z ish faoliyatini boshladi [11].

Ijtimoiy ish – multidissiplinar kasb sohasi. Bu mijozga yordam ko'rsatish maqsadida ijtimoiy hodim boshqa mutaxassislik sohasi vakillari – vrach, pedagog, psixolog, ijtimoiy ish xodimi bilan o'zaro aloqadorlik tizimini shakllantiradi deganidir. Boshqa tomondan ijtimoiy ishchining o'zi ham maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lganligi va ushbu kasblarning ko'pchiligi bilan bog'liq asosiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgani uchun ham universal mutaxassis hisoblanadi. Bu tarzda turli fanlarga oid bilimlarga egalik birlamchi tashxisni amalga oshirishga yordam beradi, shuningdek, boshqa mutaxassislarga muammolarni ishlashlariga imkon yaratish uchun xizmat qiladi. Bu ijtimoiy hodim boshqa mutaxassislarda bo'lgani kabi ijtimoiy ishchilarda o'z shaxsiy usullari yo'q degani emas, albatta. Masalan, amaliy psixologiya va ijtimoiy-psixologik ishda qo'llaniladigan individual va oilaviy terapiya, ta'sir ko'rsatish ob'ekti hamda ijtimoiy o'zgarishlar jarayoniga aralashishning "chuqurligi" bilan farqlanadi [12].

Ijtimoiy ish sohasidagi mutaxassislar faoliyatini tavsifi ularga nisbatan talabning yuqoriligi haqida fikr yuritish imkonini beradi. Respublikaning bozor iqtisodiyoti tizimiga kirishining o'zi ijtimoiy hodimlarga nisbatan ehtiyoj paydo bo'lishini ta'minladi. Bundan tashqari, bugungi kunda respublikadagi barcha faoliyat yurituvchi ijtimoiy boshqarish organlarida ijtimoiy ma'lumotga ega bo'lmagan mutaxassislar ishlab kelmoqda. Ijtimoiy ishchilarni mavjud boshqa turli ta'lim shakllari bo'yicha tayyorlanishi respublikada davlat ijtimoiy siyosati bo'yicha kadrlarni ta'minlash borasidagi muammolarning xal etilish imkonini beradi. Keng ma'noda ushbu kasb millatning ijtimoiy o'zini anglashi, davlatning insonparvarligi va taraqqiy etganligi darajasi, madaniylilik darajasini o'zida aks ettiradi.

Ijtimoiy ish sohasi doimo kengayib boraveradi, g'arbda ham ijtimoiy ishchilarni mahalliy o'zini o'zi boshqarish idoralarida, maktablarda, tibbiyot muassasalarida, oila va bolalarga yordam ko'rsatish markazlarida, biznes va ishlab chiqarishda, ruhiy sog'lomlashtirish markazlari, korreksion muassasalar va xususiy amaliyotda uchratish mumkin. Ijtimoiy muammolar aniq bir jamiyat doirasida belgilanadi. Munosabatlarning mazmun va mohiyati madaniy-tarixiy va ijtimoiy-siyosiy sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy muammo sifatida belgilangan u yoki bu hodisa o'z o'rnida madaniyat, ijtimoiy institut va jamiyatdagi munosabatlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi [13].

Amaliy ijtimoiy hodimlar, ijtimoiy ma'murlar va tadqiqotchilar o'z shaxsiy madaniyatiga egadirlar. Ularning reallik to'g'risidagi tasavvurlari, ular tomonidan ratsionallikning e'tirof etilishi, yoki ongli va me'yoriy talablarning talqini, shuningdek, ijtimoiy muammolarga nisbatan munosabati qisman odatga aylangan madaniy qadriyatlar hamda me'yorlarga borib taqaladi. Professional sifatida bu insonlar, aslo o'zlarining "madaniy ko'zgu"lari doirasidagina ishlashlariga haqlari yo'q. Biroq

tanqidiy va tahliliy yondoshuvlardan foydalangan holda qadriyatlar tizimi, ijtimoiy devyatsiya va ijtimoiy muammolarni inobatga olishga majburdirlar. Barcha toifadagi ijtimoiy ishchilarning kasbiy ixtisosligi ulardan reallikni boshdan kechirish va talqin etishning turli xil usullari haqida muntazam fikr yuritishlari va ongli munosabatda bo'lishlarini talab etadi.

Har qanday ijtimoiy hodimning, ijtimoiy siyosatchi yoki tadqiqotchining jiddiy vazifalaridan biri, bu nazariy va amaliy bilimlarni oshirish maqsadida izlanish va muntazam ravishda o'z dunyoqarashini kengaytirish, haqiqatning ortida nima turganligini o'rganishga nisbatan intilishidir. Faqat shu yo'l bilan muammo yoki muammo kompleksini tushunishning yangi vositalarini egallab borish mumkin. Bu esa o'z o'rnida ijtimoiy ishda strategiyaning belgilanishiga yordam beradi. Shu o'rinda ijtimoiy hodim mijozlari to'grisida ma'lumotlar keltiramiz. Tarixan ijtimoiy ish fuqarolik huquqlaridan mahrum bo'lgan yoki muhtoj va kambag'al insonlarga yordam ko'rsatilishi ma'nosini bildirar edi. Bugungi kunda ijtimoiy hodimlar hayot tarzi, hissiy, ma'naviy, psixologik yoki jismoniy ma'noda tevarak-atrofi sifatining yaxshilanishi zarur bo'lgan insonlar bilan ishlamoqdalar

Kim ijtimoiy hodimning mijoz bo'lishi mumkin? Ijtimoiy ishning muhim tushunchalaridan biri bu mijoz tushunchasidir (clienthood). Ijtimoiy hodim xizmat ko'rsatadigan mijozlar guruhi quyidagilardan iborat:

- oilalar, shu jumladan noto'liq oilalar ham, shuningdek, uydan qochib ketish, qonunbuzarlik, zo'ravonlik yoki boshqa qiyinchiliklar tufayli jiddiy nizolarni kechirayotgan oilalar;
- turmush o'rtog'i tomonidan beshafqat munosabatidan a'ziyat chekayotgan oila yoki juftliklar yoki farzandli ota-onalar;
- nikoh bilan bolliq jiddiy nizolarga ega bo'lgan juftliklar;
- ishsizlik, boquvchisiga ega emaslik, o'qimaganlik va boshqa omillar sababli oilaviy daromadi yetarli bo'lmagan individ va oilalar;
- qonunga xilof ish tutganlik uchun jazoni o'tagan insonlar va ularning oilalari;
- o'smir yoshidagi benikoh homilador qizlar;
- jismoniy va ruhiy kasallik tufayli hayoti qiyinlashgan individ yoki oilalar;
- alkogol ichimliklar yoki narkotiklarga ruju qo'yganlar va ularning oilalari;
- ota-onasi voz kechgan bolalar yoki bolasiga nisbatan beshafqat munosabatda bo'lganligi sababli ota-onalik huquqidan mahrum bo'lganlarning farzandlari va ularning vasiylari;
- resurs va imkoniyatlari kamaygan immigranlar, qochoqlar, jamiyatdagi ozchilikni tashkil etuvchi millat vakillari, yoki irqiy va boshqa sabab tufayli kamsitilish jabrdiydalari;
- ishsizlar va ularning oilalari;
- jismoniy va ruhiy rivojlanishi mavjud bolalar va kattalar hamda ularning oilalari;
- doimiy qarovga muhtoj bo'lgan qariyalar;
- o'z muammolarini mustaqil ravishda xal eta olmaydigan migrantlar va ko'chib o'tganlar;
- maktabdagi ta'lim bilan bolliq muammolarga ega bo'lgan bolalar va ularning oilalari;
- jarohatlar yoki ular hayotidagi muhim hodisalar (nafaqaga chiqish, yaqin insoning o'limi) bilan bolliq kuchli stressni kechirayotgan insonlar, uyidan qochadigan bolalar va boshqalar.

Ijtimoiy ish mijoz bo'lgan tushunchaning mohiyatini tushunish uchun mazkur tushunchaning ikki semantik darajada rivojlanish jarayonini tushunish lozim. Birinchi darajasi jamiyat va uning instituti tushunchasini o'z ichiga olsa, ikkinchisi alohida ijtimoiy-psixologik vaziyat dinamikasini ochib beradi. Mijoz, bir tomondan ijtimoiy hodimga yordam so'rab murojaat etgan va yordam ko'rsatilayotgan individ, oila, insonlar guruhi bo'lsa, boshqa tomondan mijoz deb ataladigan insonning ijtimoiy-psixologik holati tushuniladi [14].

Professional yordam ko'rsatilayotgan insonlarning marginal holati bilan aniqlangan bu holat, odatda bola, katta yoshdagi inson, oila, guruh, jamiyat hayotidagi krizis vaziyat bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Insonning yordam olishiga bo'lgan huquqini e'tirof etgan holda bu vaziyat mijozning

ijtimoiy hodim bilan kelishuvini har ikki tomonning chiqib keta olmas doirasiga aylantirib yuborish imkoniga ega bo'lgan "Men" obrazining ambivalentligi bilan tavsiflanib, o'z muammosini mustaqil ravishda yecha olmasligini har doim isbotlayotgan iste'molchining alohida ijtimoiy mavqe'i sifatida aks etadi.

XULOSA

Ijtimoiy xodim – ijtimoiy xizmatlarni tashkillashtiradigan yoki bevosita ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha kasbiy malakaga ega bo'lgan shaxsdir. Bu "Ijtimoiy xodimlarning maqomi, vazifalari, funksiyalari va malakaviy talablari to'g'risida"gi yo'riqnoma bilan tasdiqlandi. Mazkur yo'riqnoma esa davlatimiz rahbarining 2019- yil 11-fevraldagi "Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [15] qaroriga asosan bosh prokuratura, bandlik va mehnat munosabatlari, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, oliy va o'rta maxsus ta'lim, moliya, ichki ishlar vazirliklari hamda Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi xodimlaridan iborat ishchi guruh tomonidan "Ijtimoiy xodim" maqomini tahlil qilish natijasida ishlab chiqildi. Aytib o'tish kerakki, ijtimoiy xodim og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan shaxslar, oilalarda yuzaga kelgan ijtimoiy muammolarini yengib o'tish hamda ularning jamiyatda boshqa shaxslar bilan teng imkoniyatlardan foydalanishiga shart-sharoit yaratishga qaratilgan ish va xizmatlarni ham ko'rsatadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. To'xliiev N.O'zbek modeli taraqqiyot tamoyillari – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi", 2014. – B.42.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016.
4. "Ijtimoiy siyosat". O'quv qo'llanma s.f.n. dot. A.Abduhalilov. E.Zaitov - Toshkent: 2019. 312 bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston. – Toshkent, 2022.
6. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2- jild. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning – ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3- jild. – T.: O'zbekiston, 2019.
8. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. –T.: Fan, 2005.
9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. 3- jild. –T.: O'zbekiston, 2021.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar Strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son.
11. Asqarova O.M. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash// Monografiya. – Namangan, 2019.
12. Abdurahmonov Q.X., Abduramonov X.X. "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish" o'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisodiyot", 2010.
13. Abdurahmonov Q.X., Abduramonov X.X. "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish" o'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisodiyot", 2010.
14. Кричевский Н.А. Социальное страхование. Учебник. – М.: К.Дашкович, 2011. – 381 с.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori 2019- yil. 11-fevral.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

MAQOLADA KELTIRILGAN DALILLARNING TO'G'RIILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000